

## **BADANGA OG'IR TAN JAROXATI YETKAZISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR PROFILAKTIKASINI TUSHUNCHASI VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORALARI**

**Tashtemirov Anvar Aliqulovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti.*

*E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.*

**Bozorov Sherzod Ilhom o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 317 guruh kursanti.*

**Annotatsiya:** *Profilaktika inspektorlari tomonidan badanga og'ir tan jaroxati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish tushunchasi, bugungi kundagi holati bo'yicha tahlil, ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olishning profilaktikasi bilan bog'liq chora tadbirlarni amalga oshirish, bu borada xorijiy tajribani qo'llash bilan bog'liq chora tadbirlar haida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *badanga og'ir tan jarohati yetkazish, jazo muqarraligi, jinoyatlar statistikasi, sud tibbiy ekspertiza markazi, tan jarohati yetkazish, sud tibbiy ekspertiza tayinlash qarori, sud tibbiy ekspertizaning majburiyligi, ekspertiza turlari, jinoyat predmetlari, ekspertiza xulosasini daliliy ahamiyati.*

Mamlakatimizda tergov faoliyatida «Inson qadri uchun» degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "Inson sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy èki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomilaga èxud jazoga duchor etilishi mumkin emas, hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas" deb qa'tiy belgilangan. Yurtimizda sud-huquq islohotlari tizimida dastlabki tergov bosqichida shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Tergov tizimida dastlabki tergovni olib borishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual qonunchilik normalari hamda jaxon tajribasi andozalaridan foydalanish, jinoyatlarni tergov qilishda ilg'or tajribava maxsus bilimlardan foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 2-bobida "Sog'liqqa qarshi jinoyatlar" turlari mavjud bo'lib, 104 (qasddan badanga og'ir shikast yetkazish), 105 (qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish), 109 (qasddan badanga yengil shikast yetkazish) va boshqa badanga tan jarohati yetkazilishi bilan bog'liq jinoyat normalari mavjud. Badanga tan jarohati yetkazish jinoyatlari tahlil qilinganda, salmog'i yuqori bo'lib, og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Bu turdagi jinoyatlar, Respublika

miqiyosida tahlil qilinganda, birgina og'ir tan jarohati yetkazish: 2021 yilda 1076 ta, 2022 yilda 1319 ta, 2023 yilda 1223 ta, 2024 yilda 1080 ta va 2025 yilning 6 oyida 126 tani tashkil qilib, bu turdagi jinoyat ortib borib, jamiyatda fuqarolarning farovon turmush tarziga salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Badanga tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda shaxsning badaniga yetkazilgan tan jarohatining og'irlik darajasi, mehnat qobiliyatining yo'qolishi, inson tana qismlari faoliyatini doimiy e'ki qisman yo'qotilishi kabi tibbiy mezonlarga asoslanib bu turdagi jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarning harakatlariga huquqiy baho beriladi. Shunday ekan, ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda albatta sud tibbiy ekspertizaning maxsus bilimlaridan foydalanish zuratini keltirib chiqaradi.

Profilaktika inspektorining qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining profilaktikasini samarali tashkil etish bevosita uning turlari, usul va shakllari bilan bog'liq. Aynan shuning uchun ham, bugungi kunda profilaktika inspektorlari lavozimiga tayinlanadigan shaxslarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri sifatida «huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari va usullarini amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish» belgilangan.

Biroq ilmiy-nazariy adabiyotlar va qonunchilik tahlili huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari o'rtasida nomuvofiqlik, usul va shakllari o'rtasida esa mavhumlik va noaniqliklar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining profilaktikasining turlari, usul va shakllari tizimini takomillashtirish zaruriyati mavjudligini bildiradi.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda huquqbuzarliklar, xususan jinoyatlar profilaktikasining chora-tadbirlari haqida yakdil fikrga kelinmagan. Shu boisdan, ular: 1) «umumiy» va «yakka tartibdagi»; 2) «umumiy» va «maxsus»; 3) «umumiy ijtimoiy» va «maxsus kriminologik»; 4) «umumiy», «maxsus» va «yakka tartibdagi»; 5) «umumiy», «maxsus», «yakka tartibdagi» va «viktimologik» chora-tadbirlarga tasniflangan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning nazorati ham bezorilikning oldini olishda yaxshi samara beradi. Xususan, ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiyaning ko'cha va jamoat joylarida patrullikni amalga oshirishlari o'ziga xos profilaktik ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi «Jamoatchilik nazorati to'g'risida» gi qonuniga muvofiq jamoatchilik nazorati huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlariga nisbatan qo'llaniladi, huquqbuzarliklar profilaktikasi ob'ektlariga nisbatan ham jamoatchilik nazoratiamalga oshiriladi. Bu fuqarolar va jamoat uyushmalarining faol ishtiroki orqali bevosita bezorilikning oldi olinishida namoyon bo'ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etgan fuqaro O'zR Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 yanvardagi 15-son qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom qoidalariga binoan rag'batlantiriladilar.

Mazkur vaziyatda profilaktikaning usul va shakllari o'zaro qaytma aloqador ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni profilaktikaning shakli doirasida amalga oshirilgan chora-tadbir uchun rag'batlantirish usuli qo'llanilayapti.

Tahlillarga ko'ra, ushbu davlatlarda qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining profilaktikasi quyidagicha turlanadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasida: umumiy, maxsus, yakka tartibdagi (individual), viktimologik;
- 2) Qozog'iston Respublikasida: umumiy choralar, yakka tartibdagi (individual), maxsus choralar;
- 3) Rossiya Federatsiyasida: umumiy, yakka tartibdagi (individual);
- 4) Belarus Respublikasida: umumiy, yakka tartibdagi (individual);
- 5) Qirg'iziston Respublikasida: umumiy, yakka tartibdagi (individual).

Ko'rinib turibdiki, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining profilaktikasini turlanishi ushbu masalaga qaysi jihatdan yondashilishiga bog'liq.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining profilaktikasining umumiylikiga, individualligiga, maxsus va viktimologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasi hamda Qirg'iz va Belarus Respublikalarida uning faqat umumiylik va individualligi bo'yicha yondashilgan. Qozog'iston Respublikasida esa qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining viktimologik jihatlari uning umumiylik, individualligi va maxsusligiga singib ketadi deb tushuniladi. Rossiya Federatsiyasida esa maxsus profilaktika qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining yo'nalishlaridan biri sifatida talqin etiladi.

O'rganilayotgan ob'ektlar o'rganilishi oson bo'lishi yoki chuqurroq o'rganilishi, amaliy faoliyatda esa faoliyat yo'nalishlarining aniq belgilab olinishiga erishish maqsadida turlanadi yoki tasniflanadi.

Aynan shu maqsadda keltirib o'tilgan davlatlar qonunchiligida huquq-buzarliklar profilaktikasi turlarga ajratilgan. Lekin qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining profilaktikasining jihatlari unga kuchliroq yondashish zarurligini talab etadi.

Har qanday inson shaxsiyati kabi jabrlanuvchining shaxsiyati ham axloqiy-ruhiy xususiyatlar tizimini, qarashlarni, niyatlarni, ishonchlarni, hayotiy maqsadlarni, orzularning aqliy va qiyosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Shaxsning axloqiy-ruhiy xususiyatlari uning ijtimoiy xususiyatlari bilan o'zaro aloqadordir. Shaxsning boshqa xususiyatlari kabi aniq bir vaziyatlarda jinoyat sodir etishga ta'sir etuvchi xususiyatlari ham mazkur shaxsning ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Va aniq bir ijtimoiy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Shunday qilib, shaxsning ijtimoiy va axloqiy xususiyatlarini talqin qilish shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar sifatida qaraladi<sup>58</sup>.

Fikrimizcha, shaxsga qarshi jinoyatlardan jabrlangan shaxslarning shaxsi, uning maqomi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar zamirida o'rganish quyidagi savollarni tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi:

1) jabrlanuvchi shaxsining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, mashg'ulot turi, oilaviy ahvoli kabilarni tavsiflovchi ijtimoiy demografik belgilari;

2) uning oilada, maktabda, ishda va boshqa joylarda shakllanish jarayonini aniqlash imkonini beruvchi shaxsning hayoti va tarbiyasi natijalari;

3) jabrlanuvchining qarashlari va odatlari, xulq-atvorining motivi, jamiyat va mehnatga munosabati;

4) yon-atrofidagilar, xususan, ijtimoiy guruhlar, qarashlar, qadriyatlar, ko'rsatmalarning jabrlanuvchi qarashlari bilan tutashganligi kabilar.

Jabrlanuvchi maqomi jinoyatchilikni o'rganish doirasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining bir qator moddalarida jinoyat jabrlanuvchisining maqomini muhokama qilish imkonini beruvchi va tasniflovchi belgilari ko'rsatib o'tilgan. Masalan, o'z xizmat, kasb, fuqarolik burchini bajarish munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar; homilador ayolga, yosh bola, ojiz ahvoldagi yoki aybdorga qaram bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlar. Bu yerda jinoyat qonuni jabrlanuvchi maqomining tegishli belgilarini aybdorning javobgarligi va jazosni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida nazarda tutgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar, sodir etilish vaqtida, ba'zan sodir etilishdan keyingi xulq-atvoriga (harakatlari) doir muammosi asosiy viktimologik muammolar hisoblanib, ularni o'rganish tadqiqot markazida turadi. Chunki ko'p hollarda jabrlanuvchining xulq-atvori jinoyatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytib o'tadigan bo'lsak, bunday turdagi jabrlanuvchilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, soddalik yoki ishonuvchanlik, ruhiy kasallik yoki aqliy rivojlanmaganlik, tashqi ko'rinishi g'ayrioddiy, tibbiy, jismoniy bo'shanglik yoki alkogol, giyohvand modda va hokazolar iste'moli natijasidagi ojizlik holatiga tushib qolgan jabrlanuvchilar;

ikkinchidan, jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi janjal natijasida yuzaga keluvchi jinoyatlar natijasida jabrlanganlar. Bunda jabrlanuvchining harakatlari jinoyatchiga hissiy ta'sir etishi (masalan, bevosita jabrlanuvchining harakatlari bilan jinoyatchi affekt holatiga tushadi) yoki janjallar oqibatida kelib chiqadigan qasd yoki boshqa salbiy motiv shakllanishi mumkin;

uchinchidan, shaxsga yoki uning yaqinlariga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan jabrlanuvchini aniq bir harakatga yo'naltirish maqsadida sodir etiladigan jinoyatlar. Bularga zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan jinoyatlar kiradi;

to'rtinchidan, murakkab viktimologik xarakterdagi jinoyatlarga bo'lib o'rganamiz. Bularga shunday jinoyatlar kiradiki, jinoyatni sodir etish vaqtida kim jabrlanuvchi, kim jinoyatchi ekanini aniqlab bo'lmaydi. Janjal shunday tus oladiki, tahdid ostida bo'lgan jinoyat jabrlanuvchisi jinoyat sub'ektiga aylanib qoladi. Bunga misol qilib, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan sodir etiladigan jinoyatlarni ko'rsatish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.
4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.
5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.
7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.
8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.
9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги // Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.